XALQ DEPUTATLARI ANDIJON VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 12-iyun VI-61-79-1-0-K/24 Andijon viloyati

Andijon viloyatida kelgusi yillar davrida aholi xonadonlariga issiqlik taʼminotini yetkazib berish maqsadida kommunal xizmatlar tarifini shakllantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 20-oktyabrdagi kengaytirilgan tarzda oʻtkazilgan “2023-yilda byudjet tushumlari ijrosi hamda 2024-yilda har bir tarmoq va hududlar boʻyicha amalga oshiriladigan aniq reja va vazifalar toʻgʻrisida”gi videoselektor majlisida 2024-yilda davlat byudjeti parametrlari bajarilishining ustuvor yoʻnalishlaridan biri sifatida tarif islohotlarini yakuniga yetkazish belgilangan.

Tahlillarga koʻra, issiqlik taʼminoti xizmatlari uchun tarif darajalarining pastligi hamda xarajatlarini toʻliq qoplanmasligi sababli, korxonalarning moliyaviy holati qoniqarsiz ahvoldaligi, sohaga xususiy biznes vakillarining qiziqishi deyarli mavjud emasligi, amaldagi tariflarning korxonalar xarajatlarini qoplash darajasi respublika boʻyicha oʻrtacha 5 foizni tashkil qilishi taʼkidlangan.

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 15-sentyabrdagi 475-sonli “Yoqilgʻi-energetika sohasida bozor mexanizmlarini joriy etishning qoʻshimcha chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarorining 3-bandiga muvofiq, 2023-yil 1-oktyabrdan boshlab tabiiy gaz va elektr energiyasini tariflari oshirilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Oʻzbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining oʻrinbosari B.Xodjayevni 2024-yil 9-yanvardagi 07/53-5-569-sonli xatida, Oʻzbekiston Respublikasi Bosh vazirining oʻrinbosari — Iqtisodiyot va moliya vaziri J.A.Qoʻchqorovni yetkazib berilgan energiya resurslaridan qarzdorliklarni bartaraf qilish, issiqlik taʼminoti korxonalarining toʻlovchanlik qobiliyatini oshirish, ularning zarar bilan ishlashining oldini olish maqsadida belgilangan tartibda issiqlik taʼminoti xizmatlari uchun tariflarni qisqa muddatlarda qayta koʻrib chiqish (bunda, aholi uchun bosqichma-bosqich mart va sentyabr oylarida 15 foizdan oshirishni inobatga olish) yuzasidan Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar xokimliklariga tegishli koʻrsatmalar berilishi soʻralgan.

Shunga koʻra, Andijon viloyat “Issiqlik manbai” Davlat unitar korxonasining 2024-yil 5-martdagi № 01-94/1-sonli, 2024-yil 19-martdagi № 01-117/2-sonli xatlari va tegishli maʼlumotlari 1 G/kal issiqlik energiyasi ishlab chiqarish uchun taklif etilayotgan narxlar Andijon viloyati Raqobatni rivojlantirish va isteʼmolchilar huquqlarini himoya qilish boshqarmasi hamda Andijon viloyati Iqtisodiyot va Moliya bosh boshqarmasiga taqdim etilgan. Shuningdek Andijon viloyat Raqobatni rivojlantirish va isteʼmolchilar huquqlarini himoya qilish boshqarmasining 2024-yil 18-martdagi № 775/01-02 sonli, Andijon viloyati Iqtisodiyot va Moliya bosh boshqarmasining 2024-yil 4-apreldagi № 02/01-11-32-/184-sonli xulosalari olingan.

Viloyatda kelgusi yillar uchun ulgurji va aholi isteʼmolchilariga issiqlik taʼminotini yetkazib berish kommunal xizmatlar boʻyicha taklif etilayotgan tarif narxlari “Issiqlik energiyasi ishlab chiqarish transportirovkasi” narxlariga shartnomaviy narxlari (tariflari) asosida shakllantirilganligi uchun Oʻzbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi Qonunining 6-, 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari viloyat Kengashi

QAROR QILADI:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining oʻrinbosari B.Xodjayevning 2024-yil 9-yanvardagi 07/53-5-569-sonli xati va Oʻzbekiston Respublikasi Bosh vazirining oʻrinbosari — Iqtisodiyot va moliya vaziri J.A.Qoʻchqorovning yetkazib berilgan energiya resurslaridan qarzdorliklarni bartaraf qilish, issiqlik taʼminoti korxonalarining toʻlovchanlik qobiliyatini oshirish, ularning zarar bilan ishlashining oldini olish maqsadida belgilangan tartibda issiqlik taʼminoti xizmatlari uchun tariflarni qisqa muddatlarda qayta koʻrib chiqish yuzasidan berilgan koʻrsatmalari ijro uchun, Andijon viloyat Raqobatni rivojlantirish va isteʼmolchilar huquqlarini himoya qilish boshqarmasining 2024-yil 18-martdagi № 775/01-02-sonli, Andijon viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024-yil 4-apreldagi № 02/01-11-32-/184-sonli xulosalari maʼlumot uchun qabul qilinsin.

2. Viloyatda kelgusi yillar uchun aholi isteʼmolchilariga issiqlik taʼminotini yetkazib berish xizmatlari boʻyicha 15 foizga oshirilgan yangi tarif narxlari “Issiqlik energiyasi ishlab chiqarish transportirovkasi” narxlariga shakllantirilgan shartnomaviy narxlari (tariflari) asosida shakllantirilganligi yuzasidan maʼlumot 1-ilovaga muvofiq maʼqullansin.

3. Xalq deputatlari Andijon viloyat Kengashining 2024-yil 15-yanvardagi VI-57-2-1-0-K/24-sonli “Andijon viloyatida kelgusi yillar davrida ulgurji va aholi isteʼmolchilarga issiqlik taʼminoti yuzasidan kommunal xizmatlar tarifini shakllantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarorini 1 ilovasidagi aholi uchun tasdiqlangan narx qismi oʻz kuchini yoʻqotgan deb hisoblansin.

4. Viloyat hokimligi matbuot kotibi — axborot siyosati masalalari boʻyicha maslahatchisi M.Ibroximov mazkur qarorni matbuotda eʼlon qilsin va viloyat hokimligining rasmiy veb-saytida joylashtirsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari viloyat Kengashining Sanoat, transport, qurilish, aloqa, kommunal xoʻjalik xamda aholiga xizmat koʻrsatish masalalari boʻyicha doimiy komissiyasi (R.Xojiboyev), viloyat hokimining oʻrinbosari I.Xolmatov, viloyat qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi boshqarmasi (B.Ataxanov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



ABDURAXMANOV
SHUXRATBEK
KUSHAQBAYEVICH

Xalq deputatlari Andijon viloyati
Kengashining
2024-yil 12-iyundagi
VI-61-79-1-0-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Andijon viloyat “Issiqlik manbai” Davlat unitar korxonasi tomonidan aholiga issiqlik energiyasi yetkazib berish uchun amaldagi va yangi narxlar (tariflar)

Xizmat turi	O‘lchov birligi	Amaldagi narx (tarif) QQSsiz so‘m	Yangi narx (tarif) QQSsiz so‘m
Issiqlik energiyasi yetkazib berish xizmatlari narxi			
Markaziy isitish tizimi	Ishlab chiqariladigan 1 Gkal issiqlik energiyasi	84 700	97 405
Markaziy isitish tizimi	Isitish mavsumida 1 kunga 1 m2 isitiladigan maydon uchun	53,64	61,68